O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

QARSHI MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI

"TASDIQLAYMAN"
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot
instituti rektori
_________ O.SH.Bazarov
"27" 06 2024 yil

Ro‘yhatga olindi № 05/02/005M
"27" iyun 2024 yil

# KORXONALARNI RIVOJLANTIRISh STRATEGIYASI

## FANINING O'QUV DASTURI

| | | |
|---|---|---|
| **Bilim sohasi:** | **300000** | – Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot |
| **Ta’lim sohasi:** | **310000** | – Ijtimoiy va xulq atvorga mansub fanlar |
| **Magistratura mutaxassisligi:** | **70310102** | – Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) |

Qarshi – 2024

| Fan/modul kodi<br>ENDEVST7 | O'quv yili<br>2024-2025 | Semestr<br>3 | ECTS - Kreditlar<br>5 | |
|---|---|---|---|---|
| Fan/modul turi<br>Tanlov fanlari | Ta'lim tili<br>O'zbek/rus | | Haftadagi dars soatlari<br>4 | |
| 1. Fanning nomi | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) | |
| Korxonalarni rivojlantirish strategiyasi | 60 | 90 | 150 | |

**2.**

**I. Fanning mazmuni**

Fanni o'qitishdan maqsad – magistrlarga iqtisodiyot tarmoq korxonalarini rivojlantirish strategiyasini to'g'ri tanlash boyicha ixtisosligiga r bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdir

Ushbu maqsadga erishish uchun fan talabalarni iqtisodiyot tarmoqlari korxonalarida ishlab chiqarishini boshqarish va uni izchil barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun zarur zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish, davlatning iqtisodiy siyosatini, jumladan sanoat siyosatini chuqur anglatish, korxonalarni rivojlantirish strategiyasini boshqa iqtisodiy fanlar yutuqlari bilan o'zaro xamkorlikda o'rgatish, iqtisodiy qonunlar, sanoat korxonalari soxasida fundamental qoidalar va xodisalarning sanoat korxonalarining strategik rivojlantirish borasida amal qilish xususiyatlarini o'rgatish vazifalarini bajaradi.

**II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-mavzu. "Korxonalarni rivojlantirish strategiyasi" fanining predmeti va vazifalari**

"Korxonalarni rivojlantirish strategiyasi"- fan va o'quv kursi sifatida. Kursning tuzilishi va uning iqtisodiy fanlar tizimida tutgan o'rni hamda boshqa o'quv fanlari bilan bog'liqligi. Kursning bozor iqtisodiyoti sharoitiga va islohotlar talabiga xos vazifalari. O'zbekistonda korxonalarini rivojlantirish to'g'risidagi qonunlar, farmonlar va nizomlar. Fanning mamlakat iqtisodiyotini yangilash va modernizasiyalash qilish va yangilashni izchil davom ettirishning davr talablariga xos va mos vazifalari.

**2-mavzu. Korxonalarning strategik rivojlanishida tadbirkorlik tuzilmalarining iqtisodiy barqarorligi**

Iqftisodiyotda yuqori va izchil o'sish sur'atlarini saqlash, makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha eng muhim ustuvor yo'nalishlar. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini rivojlantirishning



ustuvor yo'nalishlari.

Korxonaning iqtisodiy barqarorligi. Iqtisodiy barqarorlik va samaradorlik. Korxona xo'jalik tizimining samaradorligi. Korxona rivojlanishida tadbirkorlik faoliyati va tashabbuskorligining iqtisodiy ahamiyati. Korxonada tadbirkorlik muhitini shakllantirish asosida uni rivojlantirish yo'llari.

**3-mavzu. Iqtisodiyotni modernizasiyalash sharoitida korxonalar faoliyat yuritishining strategik modellari**

Bozor tipidagi firma modeli. Korxonalar faoliyatining funksional sohalari. Korxonalarning operasion funksiyalari. Korxonalar faoliyatining asosiy funksional sohalari. Ishlab chiqarish va ilmiy texnikaviy rivojlanish. Ta'minotchilar bilan to'g'ridan – to'g'ri shartnoma. Ta'minotchilarni tanlash. Vositachi firmalar bilan shartnomalar. Moliyaviy xo'jalik va hisob. Firmaning moliyaviy funksiyalari. Pul oqimi. Moliyaviy mexanizm. Korxonaning moliya bo'limi. Personalni boshqarish.

**4-mavzu. Korxonalarning tashkiliy tuzilmasi va boshqaruv jarayonlari strategiyasi**

Tashkiliy tuzilmalarning mohiyati va ularni tuzish bosqichlari. Tashkiliy tuzilmalarning turlari. Byurokratik (mexanistik) tuzilmalar. Chiziqli tuzilma. Funksional tuzilma. Chiziqli – funksional tuzilma. Divizional tuzilmalar. Mahsulot bo'yicha tuzilma. Iste'molchiga yo'naltirilgan tuzilma. Mintaqaviy tuzilma. Dasturli – maqsadli tuzilmalar. Moslashuvchan tuzilmalar. Loyihaviy tuzilma. Matrisaviy tuzilma. Konglomerat tipdagi tuzilma. Yangiliklarga yo'naltirilgan tuzilma. To'rsimon tuzilmalar. Boshqaruv darajalarini shakllantirish. Korxonalarni boshqarishni tashkil etishning tamoyillari va usullari. O'zbekistonda aksionerlik jamiyatlarini boshqarish.

**5-mavzu. Korxonalarning strategik rivojlanishida erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etilishi**

Korxonalarning rivojlanishida erkin iqtisodiy zonalarning iqtisodiy ahamiyati va shakllanish bosqichlari. Erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari. "Navoiy" erkin iqtisodiy zonasining tashkil etilishi va hududda korxonalarning rivojlantirishdagi o'rni. "Angren" erkin iqtisodiy zonasining tashkil etilishi va hududda korxonalarning rivojlantirishdagi roli. "Jizzax" erkin iqtisodiy zonasining tashkil etilishi va hududda korxonalarning rivojlantirishdagi o'rni. Korxonada logistik faoliyatning samaradorligini oshirish masalalari.

**6-mavzu. Korxonalarning asosiy vositalari va nomoddiy aktivlaridan oqilona foydalanish strategiyasi**

Korxonalar asosiy kapitalining tarkibi va elementlarining tasnifi. Aktiv va passiv asosiy vositalar. Asosiy vositalarning sifat belgilari. Asosiy vositalar funksiyalari. Asosiy vositalar tuzilmasi. Asosiy vositalarni baholash. Asosiy vositalarni qayta baholash usullari. Asosiy vositalarning eskirishi. asosiy vositalarini takror ishlab chiqarish. Asosiy vositalarni modernizasiyalash va yangilashning asosiy yo'llari. Asosiy vositalar amortizasiyasi va ularni hisoblash

uslublari. Asosiy vositalarning xolati va ulardan foydalanish. Sanoat korxonalarining nomoddiy aktivlari. Intellektual mulk obyektlari. Nomoddiy aktivlarni baholash.

**7-mavzu. Korxonalarning aylanma mablag'laridan samarali foydalanish asosida rivojlanishini ta'minlash**

Aylanma mablag'lar tushunchasi va tarkibi. Ishlab chiqarish aylanma fondlari va muomila fondi. Aylanma mablag'larni shakllantirish manbalari. Ishlab chiqarish aylanma fondlarini baholash. Ishlab chiqarish zaxiralarini baholash. Baholash usullari. Tayyor mahsulotni va tugallanmagan ishlab chiqarishni baholash. Aylanma mablag'lardan foydalanish ko'rsatkichlari. Korxonalarning aylanma mablag'lariga bo'lgan talabini aniqlash. Zaxira normasi. Aylanma mablag'lar normativi. Tugallanmagan ishlab chiqarish va tayyor mahsulotlardagi aylanma mablag'larni normalashtirish. Umumiy ehtiyojni aniqlash. Resurslar tejamkorligini ta'minlash bo'yicha vazifalarni amalga oshirish yo'nalishlari. Korxonalarda zahiralarni boshqarish.

**8-mavzu. Korxonalarni strategik rivojlanishida xodimlar va mehnat motivasiyasi tizimi**

Aholi bandligini ta'minlash va yangi ish o'rinlarini tashkil qilish muammosini hal etish bo'yicha ustuvor vazifalarni korxonalar miqyosida amalga oshirish yo'nalishlari. Mehnat iqtisodiy resurs sifatida. Korxonalar personali va uning tavsifi. Korxonalar personali tuzilmasi, uning xarakati ko'rsatkichlari. Korxonalar personalidan foydalanish samaradorligi. Ish vaqti va undan foydalanish. Mehnat unumdorligi. Mehnat mativasiyasi tizimi. Mehnat mativasiyasi turlari. Tarif tizimi. Vaqtbay va ishbay haq to'lash. Mehnatni rag'batlantirish shakllari. Korxonalar faoliyati yakunlarida foydani taqsimlashda ishtirok etish. Korxonalarda kapitalda ishtirok etish. Ijtimoiy to'lovlar va imtiyozlar. Korxonalar personalining ijodiy salohiyatini rivojlantirish. Korxonalar personalini kasbiy o'qitish va ularni shakllari. Kasbiy lavozim bo'yicha o'sish. Rahbarlarni tayyorlash. Personal attestasiyasi.

**9-mavzu. Korxonalar rivojlanishida moliyaviy resurslar va biznesni moliyalashtirish**

Korxonalarni moliyaviy resurslar bilan ta'minlashning asosiy yo'nalishlarining mohiyati va mazmuni. Moliyaviy resurslarning mohiyati va tasnifi. Moliyaviy resurslar tushunchasi. Ichki va tashqi moliyaviy resurslar. Moliyalashtirish va investisiyalash. Moliyalashtirishning "oltin qoidasi". Moliyaviy resurslarni jalb etish shakllari. Moliyalashtirish manbalarini tasnifi. Kreditorlik qarzlari. Tijorat krediti. O'z o'zini moliyalashtirish. Moliyaviy resurslarga bo'lgan talabni hisoblash. Xususiy kapitalni yetarliligi. Moliyaviy defis va ekspluatasion ehtiyoj.

**10-mavzu. Korxonalarni rivojlanishida xarajatlarni tejash va mahsulot tannarxini kamaytirish**

Korxonalarda xarajatlar, sarflar va mahsulot tannarxi. Xarajatlarni guruhlash: xarajatlar turlari bo'yicha, xarajatlar obyektlari bo'yicha, yuzaga kelish o'rni bo'yicha, mas'uliyatlar markazlari bo'yicha, tushum obyektlari



bo'yicha. Xarajatlar tasnifi. Doimiy va o'zgaruvchan xarajatlar. Bevosita va bilvosita xarajatlar. Tartibga solinadigan va tartibga solib bo'lmaydigan xarajatlar. Davr xarajatlari. Mahsulot tannarxini kalkulyasiya qilish usullari. Tannarx turlari. Haqiqiy tannarx kalkulyasiyasi va uning usullari: buyurtmalar bo'yicha, jarayonlar bo'yicha, bosqichlar bo'yicha, normativ, direkt-kosting, AVS usullari.

**11-mavzu. Korxonalarni strategik rivojlanishida daromadlar va uni oshirish**

Korxonalar daromadlari tushunchasi va tuzilmasi. Korxonalar foydasi, shakllantirish va taqsimlash. Foydani shakllanish va taqsimlanish algoritmi. Firma foydasining ishlatilishi. Moliyaviy zaxiralarni shakllanish. Biznesning rivojlanishiga investisiyalash. Ijtimoiy sohani moliyalash. Dividend siyosati. Korxonalarning daromadliligi ko'rsatkichlari. Rentabellik. "Xarajatlar-tushum-foyda" o'rtasidagi bog'liqlik. Marjinal foyda. Marjinal tahlil va uning amaliy jihatlari.

**12-mavzu. Korxonada bahoni shakllantirish va firmaning baho siyosati**

Korxonalarda mahsulot bahosining modellari: xarajatlar modeli, bozor modeli. Baholar tuzilmasi, baholar tizimi. Transfert baholar. Baho va firma xarajatlari o'rtasidagi bog'liqlik. Firmaning baho siyosati. Korxonalar maqsadlari va bahoni shakllantirish. Diskkriminasion baholar. Korxonalarning baho strategiyasini ishlab chiqish. Mukofotli bahoni shakllantirish strategiyasi. Neytral bahoni shakllantirish strategiyasi. Yorib kirish baho strategiyasi. Beqaror iqtisodiyotda bahoni shakllantirish. Ishlab chiqarish – texnikaviy maqsadlardagi mahsulotlar bo'yicha bahoni shakllantirish.

**13-mavzu. Korxonalarni soliqqa tortish va soliq yukini pasaytirish**

O'zbekiston Respublikasi Soliq qonunchiligining asoslari. Soliqqa tortishning asosiy tushunchalari. Soliqlar tasnifi. Soliq to'lovchilar va soliqqa tortish elementlari. Soliq munosabatlari ishtirokchilari. Soliq yukini kamaytirishga qaratilgan oqilona soliq siyosatining mazmun-mohiyati. Korxonani soliqqa tortish shartlari. Soliq mas'uliyati. Korxonalar to'laydigan asosiy soliqlar. Foyda solig'i. Qo'shilgan qiymat solig'i. Mulk solig'i. Korxonalarning soliq to'lovlarini optimallashtirish va soliqdan qochish. Soliq qonunchiligidagi imtiyozlardan foydalanish. Korxonaning shartnomaviy munosabatlarini rejalashtirish. Soliqqa tortish bazasini kamaytirish. Soliqqa tortishni optimallashtirishning maxsus usullari.

**14-mavzu. Korxonalar faoliyatining iqtisodiy samaradorligi**

Korxonalar faoliyatining samaradorligi tushunchasi. Samaradorlikni baholashdagi resurs yondoshuvi. Sof pul oqimi. Erkin pul oqimi. Samaradorlikni baholashdagi zamonaviy yondoshuvlar. Biznesning maqsadlari, tashkiliy tuzilmalari va samarasi. Korxonalar salohiyatini oshirish omillari. Zamonaviy

| | |
|---|---|
| | kamaytirish.<br>11. Korxonalarni strategik rivojlanishida daromadlar va uni oshirish<br>12. Korxonada bahoni shakllantirish va firmaning baho siyosati.<br>13. Korxonalarni soliqqa tortish va soliq yukini pasaytirish.<br>14. Korxonalar faoliyatining iqtisodiy samaradorligi.<br>15. Korxonalarning strategik rivojlanishida investision siyosat va investisiya muhiti.<br>16. Korxonalarning strategik rivojlanishida innovasion faoliyatni rivojlanishi.<br>17. Korxonalarning strategik rivojlanishida marketing faoliyati.<br>18. Korxonaning tashqi iqtisodiy faoliyatini rivojlantirish strategiyasi.<br>Korxonaning strategik rivojlanishini boshqarishda axborot tizimlari.Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.<br>**IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**<br>Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:<br>1. 2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha tarraqiyot strategiyasidagi iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga yo'naltirilgan ustuvor vazifalar mazmuni va mohiyati.<br>2. 2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha tarraqiyot Harakatlar strategiyasidagi iqtisodiyotda Tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, yetakchi tarmoqlarini modernizasiya va diversifikasiya qilish hisobiga milliy iqtisodiyotning raqobatdoshligini oshirish bo'yicha dasturiy vazifalar.<br>3. Korxonalarning strategik rivojlanishida tadbirkorlik tuzilmalarining iqtisodiy barqarorligi.<br>4. Iqtisodiyotni modernizasiyalash sharoitida korxonalar faoliyat yuritishining strategik modellari.<br>5. Korxonalarning tashkiliy tuzilmasi va boshqaruv jarayonlari strategiyasi.<br>6. Korxonalarning strategik rivojlanishida erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etilishi.<br>7. Korxonalarning asosiy vositalari va nomoddiy aktivlaridan oqilona foydalanish strategiyasi.<br>8. Korxonalarning aylanma mablag'laridan samarali foydalanish asosida rivojlanishini ta'minlash.<br>9. Korxonalarni strategik rivojlanishida xodimlar va mehnat motivasiyasi tizimi.<br>10. Korxonalar rivojlanishida moliyaviy resurslar va biznesni |



| | |
|---|---|
| | moliyalashtirish.<br>11. Korxonalarni rivojlanishida xarajatlarni tejash va mahsulot tannarxini kamaytirish.<br>12. Korxonalarni strategik rivojlanishida daromadlar va uni oshirish.<br>13. Korxonada bahoni shakllantirish va firmaning baho siyosatini takomillashtirish.<br>14. Korxonalarni soliqqa tortish va soliq yukini pasaytirish yo'llari.<br>15. Korxonalar faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari.<br>16. Korxonalarning strategik rivojlanishida investision siyosat va investisiya muhiti.<br>17. Korxonalarning strategik rivojlanishida innovasion faoliyatni rivojlanishi.<br>18. Korxonalarning strategik rivojlanishida marketing faoliyatini joriy etish.<br>19. Korxonaning tashqi iqtisodiy faoliyatini rivojlantirish strategiyasini ta'minlash.<br>20. Korxonaning strategik rivojlanishini boshqarishda axborot tizimlari.<br>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan loyiha ishi, esse, tezis yoki ilmiy maqola yozish, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi. |
| 3. | **V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**<br>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:<br>korxonalarning rivojlanish strategiyasi tushunchasining mazmuni va ahamiyati; korxonalarning rivojlanishini harajatlar nuqtai nazaridan baholash usullari; korxonalarning rivojlanish strategiyasining umumiy hajmini baholash; korxonalarning rivojlanish strategiyasini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi, ularning tasnifi va aniqlash yo'llari ***to'g'risida tasavurga ega bo'lishi;***<br>– korxonalarning rivojlanishida aylanma mablag'lar va ularni tahlil qilish vazifalarini; korxonalarning rivojlanishida mehnat motivasiyasi va uning mohiyatini; korxona rivojlanishida asosiy vositalar bilan ta'minlanganligini ifodalovchi ko'rsatkichlarini tahlil qilishni; korxona rivojlanishida nomoddiy aktivlari holati, ta'minlanganligi va samaradorligini tahlil qilishni ***bilishi;***<br>– korxonada aylanma mablag'lar holati, ta'minlanganligi va samaradorligini tahlil qilish; korxonalarning mehnat salohiyati bilan ta'minlanganligini ifodalovchi ko'rsatkichlarini tahlil qilish, korxonada mehnat haqi va uning hisoblashni tahlil qilish, korxonada harajatlar samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarni hisoblash, iqtisodiy muammolar bo'yicha yechimlar qabul qilish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi;***<br>• – talaba iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish va xulosa chiqarish; korxonada harajatlarni rejalashtirish va daromadni oshirish strategiyasi, korxonada mahsulot bahosini shakllantirish strategiyasi; korxonani soliqqa tortish va soliq yukini kamaytirish, korxonada axborot resurslarini joriy etish |

| | |
|---|---|
| | strategiyasi; korxonalar rivojlanishida marketingni rolini oshirish, iqtisodiy muammolarini hal etish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar to'plash va ulardan foydalanish ***malakalariga ega bo'lishi kerak..*** |
| **4.** | **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• ma'ruzalar;<br>• interfaol keys-stadilar;<br>• seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);<br>• guruhlarda ishlash;<br>• taqdimotlarni qilish;<br>• individual loyihalar;<br>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. |
| **5.** | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha test yoki yozma ishni topshirish. |
| **6.** | **Asosiy adabiyotlar:**<br>1. Artikov A. Sanoat iqtisodiyoti. Darslik –T.: Yozbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2014. 220 bet.<br>2. R.S. Muratov, I.A. Djalalova, S.Sh. Oripov. Korxona iqtisodiyoti. Darslik. – T.: «Fan va texnologiya», 2014, – 424 bet.<br>3. B.A. Adukarimov va boshq. Korxona iqtisodiyoti. Darslik. – T.: «Fan va texnologiya», 2013, – 368 bet.<br>4. Maxmudov E.X. Korxona iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma.–T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005. – 170 bet.<br><br>**Qo'shimcha adabiyotlar:**<br>1. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalkimiz bilan birga kuramiz. - T.: Uzbekistan, 2017. - 488 b.<br>2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. www.lex.uz<br>**3.** Mejdunarodnaya konkurensiya: Konkurentnoye preimushestva stran. Maykl Porter. Per. S angl. Izd. M.: Alpina Pablisher, 2017. 947 str.<br>**Axborot manbaalari**<br>1. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi xukumat portali.<br>2. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari |



| | |
|---|---|
| | milliy bazasi.<br>3. www.mineconomy.uz (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi)<br>4. www.mehnat.uz (O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi)<br>5. www.mf.uz (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi)<br>6. www.stat.uz (O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi)<br>**VIII. Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.**<br><br>**IX. Fan/modul uchun ma'sullar**<br>**S.N.Xamrayeva**-"Innovatsion iqtisodiyot" kafedrasi mudiri i.f.d., prof.<br>**R.X.Ergashev** - QarMII, "Innovasion iqtisodiyot" kafedrasi professori, iqtisod fanlari doktori.<br><br>**IX. Taqrizchilar:**<br>**A.D.Ravshanov** QarMII, "Innovasion iqtisodiyot" kafedrasi prof, v.v.b. iqtisodiyot fanlari nomzodi<br><br>**G'.F.Quchqorov** - QarDU, "Iqtisodiyot va servis" kafedrasi mudiri, iqtisod fanlari nomzodi, dosent *(turdosh OTM)* |